



## YERYONG‘OQ HOSILINI BIR O‘TISHDA KOVLASH VA DUKKAKLARINI POYASIDAN AJRATISH MASHINALARI

---

*Xusenova Shaxzoda O‘ktam qizi*

*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

*Kamolova Nodira Xayrullo qizi*

*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

*Toshtemirov Jo‘rabek Mamarasul o‘g‘li*

*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish mashinalarining tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** yerong‘oq hosili, yereng‘oq palagi, dukkagi, yereng‘oq yig‘ishtirish mashinasi, ish organlar, kovlagich, rolik, tasmali uzatma, yo‘naltirgich, bunker.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son farmoniga asosan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat havfsizligi sohasida ko‘plab islohotlarni amalga oshirish belgilangan. Iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish, aholining farovonligini yuksaltirish ko‘p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejimli foydalana olishimizga bog‘liqdir. Qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mumkin bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun hozirgi davrdagi eng muhim vazifa – energiya va resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejaydigan texnika vositalarini ishlab chiqish hamda joriy etishdan iborat [2]. Ma’lumki respublikamizda dukkakli ekinlarga ya’ni moyli o‘simliklarga bo‘lgan extiej yildan yiliga ortib bormoqda. Jumladan respublikamizda hozirgi kunga kelib 21 ming gektardan ortiqroq maydonlarda yereng‘oq yetishtirilib, gektariga 23-32 sentenerdan hosil olinmoqda. Yereng‘oq mavsumiy o‘simlik xisoblanib bir ikki marta hosil olish imkoni mavjud [3,4]. Respublikamizda yereng‘oqni yig‘ishtirib olish jaraeni asosan qo‘l mehnati bilan bajariladi. Shu sababli yereng‘oq hosilini yig‘ishtirishni mexanizatsiyalash



maqsadida adabiётlar hamda patent izlanishlarning taxlillari o‘tkazildi. O‘tkazilgan taxlillar natijasida ushbu maqolada xorijiy davlatlarda yaratilgan yerèng‘oq hosilini yig‘ishtiradigan mashinalarning tahlili keltirilgan. S.S.Xrush (Rossiya Federatsiyasi) olimi tomonidan olib borilgan tadqiqotlari natijasida yerèng‘oq hosilini yig‘ishtiradigan mashina yaratgan va unga mualliflik guvoxnomasi olgan.

Kovlovchi panja yerèng‘oq dukkaklarini kovlab oladi, so‘ngra yo‘naltirgich èrdamida tasmali uzatmaga uzatadi, tasmali uzatma yerèng‘oq poyalarni mahkam siqib ma‘lum burchak ostida yuqori tomonga qarab xarakatlantiradi hamda xarakatlanish jaraènida barmoqchalar poyalarning ildizlarida joylashga dukkaklarni urib bunkerga tushiradi. O‘tkazilgan patent informatsion taxlillar yerèng‘oq hosilini yig‘ishtirish mashinalarini yaratish va takomillashtirish, bo‘yicha ko‘plab xorijiy davlat olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishildi va o‘rganildi. Jumladan Xitoy xalq respublikasi olimlari Kuo-Ming Wang, Taipei, Taiwan tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yerèng‘oq hosilini yig‘ishtiradigan mashina ishlab chiqilgan va unga №4607703 raqamli guvoxnoma olgan. Yuqoridagi mashinalarni tuzilishining murakkabligi, metal sarfining ko‘pligi, tannarxining qimmatligi, energiyaresurstejamkor masligi, respublikamiz iqlim sharoitiga mos kelmasligi, taroqning aylanish tezligi, barmoqlar oraliq masofasi, ularning uzunligini o‘lchamlari ilmiy asoslanmaganligi uning asosiy kamchiliklariga kiradi. Yerèng‘oq hosilini yig‘ishtirib olish bo‘yicha ilmiy-adabiётlar hamda patent informatsion izlanishlarning tahlillari respublikamiz sharoitida ishlay oladigan energiyaresurstejamkor yerèng‘oq hosilini yig‘ishtirish mashinasini yaratish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish joriy etish orqali yerèng‘oq hosilini yig‘ishtirish jaraèni mexanizatsiyalashga erishilishini ko‘rsatdi. Taklif etilaётgan mashina Namangan muhandislik-qurilish instituti olimlari hamda —BMKB|| argomash MCHJ korxonasi muhandislari bilan hamkorlikda yasalgan bo‘lib, dehqon va fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan yerèng‘oq hosilini bir o‘tishda kovlab poyasidan dukkaklarini ajratib oladi hamda qulay sharoitda tez va sifatli nobud qilmasdan yig‘ishtirib olish imkonini beradi. O‘tkazilgan dastlabki sinovlar natijasida ishlab chiqilgan mashina bir o‘tishda yerèng‘oqni kovlab va poyasidan dukkaklarini ajratishni talab darajasida bajarishini ko‘rsatdi hamda bu jaraènlardagi inson qo‘l mehnati batamom bartaraf etishni ta‘minladi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF5853-sonli —O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.

2. Mansurov, M. T., Otaxanov, B. S., Xojiyev, B. R., & Nishonov, F. A. (2021). Adaptivnaya konstruktsiya strippera dlya uborki araxisa. Mejdunarodniy jurnal innovatsionnix analizov i novix texnologiy, 1(4), 140-146.

3. Abdulxayev X.G‘. Pushtalarga ishlov beruvchi mashina rotatsion yumshatkichi tortqisining gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagini asoslash // Irrigatsiya va melioratsiya. – Toshkent, 2017. – № 1(7). – B. 57-58.

4. Xasanov Majidxon Maxmudxon O‘g‘li, Yokubjonov Faxriddin Voxidjon O‘g‘li, & Maxmudjonov G‘anijon Erkin O‘g‘li (2022). Texnologik mashina va mexanizmlaridagi yeyilish jaraenlarining tahlili. Mexanika i texnologiya, 3 (8), 69-75.